



O'ZBEKISTONDA SOLIQ QARZDORLIGI ULUSHINI XORIY TAJRIBASI ASOSIDA KAMAYTIRISH YO'LLARI

Hakimov Ulug'bek Furqat o'g'li
Toshkent moliya instituti

Annotatsiya. Mazkur maqolada soliqlarning iqtisodiyotidagi ahamiyati hamda bugungi kunda, mamlakatda soliq qarzdorligi qisqartirish dolzarb masalalardan biri ekanligi tadqiq qilingan. Soliq qarzdorligini qisqartirish bo'yicha xorijiy iqtisodchi olimlarning qarashlari o'rganilgan. Xorijiy mamlakatlarda soliq qarzdorligini undirishning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Yuqorida qayd etilgan holatlardan kelib chiqib, mamlakatimizda soliq qarzdorligini qisqartirish, shu jumladan uni samarali undirish amaliyotini takomillashtirish borasida taklif va tavsiyalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: soliq organi, soliq to'lovchilar, yuridik shaxslar, yakka tartibdagi tadbirkorlar, soliq yuki, soliqlar va yig'imlar, soliq qarzdorligi, davlat, budjet.

ПУТИ СНИЖЕНИЯ ДОЛИ НАЛОГОВОЙ ЗАДОЛЖЕННОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ НА ОСНОВЕ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА

Хакимов Улугбек Фуркат угли
Ташкентский финансовый институт

Аннотация. В данной статье рассматривается значение налогов в экономике и то, что сокращение налоговой задолженности является одним из самых актуальных вопросов в стране на сегодняшний день. Изучены взгляды зарубежных экономистов на сокращение налоговой задолженности. Анализируются особенности взыскания налоговой задолженности в зарубежных странах. На основании вышеизложенных обстоятельств сформулированы предложения и рекомендации по сокращению налоговой задолженности, в том числе по совершенствованию практики ее эффективного взыскания в нашей стране.

Ключевые слова: налоговый орган, налогоплательщики, юридические лица, индивидуальные предприниматели, налоговое бремя, налоги и сборы, налоговая задолженность, государство, бюджет.

WAYS TO REDUCE THE SHARE OF TAX DEBT IN UZBEKISTAN BASED ON FOREIGN EXPERIENCE

Khakimov Ulugbek Furkat ugli
Tashkent Financial Institute

Abstract. This article examines the importance of taxes in the economy and the fact that tax debt reduction is one of the most urgent issues in the country today. The views of foreign economists on tax debt reduction were studied. Specific features of tax debt recovery in foreign countries are analyzed. Based on the above-mentioned circumstances, proposals and recommendations have been formulated to reduce tax debt in our country, including improving the practice of its effective collection.

Key words: tax authority, tax payers, legal entities, individual entrepreneurs, tax burden, taxes and fees, tax debt, state, budget.

Kirish.

Jahonda soliq ma'muriyatchiligini rivojlantirish, xususan soliqlarni undirish mexanizmini takomillashtirish, mamlakatda aholining soliq madaniyatini yanada oshirish hamda mamlakatda soliq yukini pasaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yuridik shaxslarning soliq qarzdorligini qisqartirish, soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlash holatlariga qat'iy chora ko'rish, soliq qarzdorligini soliq to'lovchilarning mol-mulki hisobidan undirish va undirilmay qolgan soliq qarzini hisobdan chiqarish kabi yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda, ammo bugungi kunda soliqlar va yig'implardan bo'lgan qarzdorlik summalarini xorij tajribalari asosida sinovdan o'tgan, inson manfaatlarini himoya etilishi bo'yicha dunyo tan olgan usullardan foydalangan holda undiruv mexanizmini rivojlantirish masalalariga yetarlicha e'tibor qaratilmayapti.

O'zbekistonda soliqlarni o'z muddatida va to'liq hajmda budjetga undirish soliq siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilanib, soliq yukini pasaytirish va soliq turlarini unifikatsiya qilish orqali soliq qarzdorligini qisqartirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Respublikada tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususi sektorning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish maqsadida, 2026-yilga borib tadbirkorlik subyektlariga soliq yuklarni yalpi ichki mahsulotning 27,5 foizidan 25 foizi darajasiga kamaytirish asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilab berilgan (Farmon 2022). Mazkur vazifa ijrosini ta'minlashda yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning soliq qarzlarini to'lash muddatini kechiktirish imkoniyatini berish tartibini takomillashtirish, soliq yukini pasaytirish yo'li bilan tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash, jismoniy shaxslarning soliq qarzdorligini uning mol-mulki hisobidan undirish tartibini soddalashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalarni asoslash hamda soliq qarzlarini undirish mexanizmini takomillashtirish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Adabiyotlar sharhi.

Mamlakatda soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari, shu jumladan, soliqlar va yig'implar bo'yicha qarzdorlik summalarini qisqartirishning ayrim masalalari qator xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan ilmiy ishlarida tadqiq qilingan.

Mazkur masala bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borgan xorijlik olim Morozning (2011) fikriga ko'ra, "Soliq to'lovchilarning soliqlar va soliq qarzini bir xil mazmunda tushunishi chalkashliklarni keltirib chiqaradi. Hech qachon sud yoki soliq organi soliqlarni undirmaydi. Faqatgina soliq qarzi, penya hamda moliyaviy sanksiyalar undirishni talab etadi. Hattoki, soliq qarzi ham undirilmay, balki ixtiyoriy ravishda to'lanishi mumkin. Aynan shu xulosa nafaqat soliq qonunchilikda belgilab qo'yilsa va buning natijasida fuqarolarning huquqiy ongida ham aks etsa, balki soliq to'lovchilar uchun soliqlar "erkinlik" belgisi sifatida ham namoyon bo'ladi" - deb ta'kidlab o'tgan.

Xorijlik olim Michael Brostek (2009) esa o'z tadqiqotida soliq qarzini undirilishining samaradorligini oshirish bo'yicha quyidagi omillarini ko'rsatib o'tadi, xususan:

- mamlakatda soliq qarzi summalarining paydo bo'lishiga yo'l qo'yishni oldini olishda soliq yukini pasaytirish kelajakda soliq qarzdorliklari kamayishiga olib keladi;
- muddatida to'lanmagan soliqlar va yig'implarni undirish strategiyasi faqat belgilangan davr mobaynida o'z ijobiy natijasini beradi.

Bundan tashqari, Vinogradova (2019) ham o'zining ilmiy ishida soliq qarzlarini undirishda soliq qarzi mavjud xo'jalik yurituvchi subyektlardan mol-mulklarini xatlash jarayonini ko'paytirish samarali natija berishini aytib o'tadi.

Mazkur masala bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borgan xorijiy iqtisodchi olim Podkolzinning (2016) fikriga ko'ra, quyidagi omillar ta'siri natijasida soliq qarzdorligi vujudga kelishi mumkin:

- ijtimoiy-siyosiy va tarixiy;
- tashkiliy-huquqiy;
- iqtisodiy.

Ijtimoiy, siyosiy hamda tarixiy – bunda, ayrim davlatlarning siyosiy faoliyatiga qarshilik va e'tirozlarni kelib chiqishi, soliq madaniyatining shakllanmaganligi va bundan tashqari, boshqa bir qancha ijtimoiy holatlar bilan izohlanishi mumkin.

Tashkiliy-huquqiy – mazkur holatda soliq ma'murchiligi takomillashmaganligi va soliqqa oid huquqiy bazaning to'liq shakllanmaganligi, soliq yukini yuqoriligi bilan izohlanadi.

Iqtisodiy – bu omil iqtisodiy o'zgarish bilan izohlanadi. Bu asosan 2 guruhga bo'linadi:

- birinchi guruh umumiy iqtisodiyotdagi tizimning beqarorligi, yetarli darajadagi pul massasining yo'qligi, inflatsiya darajasining yuqoriligi, ishlab chiqarishning pasayishi yoki xarid qobiliyatining pasayishi;

- ikkinchi guruh o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan ishlab chiqarish va tovarlar oldi-sotdisiga bog'liq bo'lgan holatlar hamda faqat ayrim xo'jalik yurituvchi subyektlarga taalluqli bo'lgan texnik-ishlab chiqarish bilan bog'liq holatlar bilan izohlanadi.

Mahalliy iqtisodchi olimlarimiz Tangriqulov va Toshmatovlar (2010) fikricha, soliq qarzlarning nazariy jihatdan vujudga kelish sabablari quyidagilardan iborat:

- o'zaro moliya-xo'jalik munosabatlarida bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan to'lov intizomiga rioya qilmaslik va buning oqibatida debitorlik, kreditorlik qarzlarning oshib ketishi;

- moliya-xo'jalik faoliyatini rejalashtirish va bu faoliyatni noto'g'ri boshqarish;

- xo'jalik yurituvchi subyektning mahsulotiga (bajarilgan ish va xizmatlarga) iste'mol talabining keskin o'zgarishi;

- ishlab chiqarilgan mahsulotning (bajarilgan ish va xizmatlarga) sifati buyurtmachining yoki bozor talabiga javob bermasligi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotni amalga oshirishda ilmiy mushohada, statistik kuzatish, statistik grafiklardan foydalanilgan holda qiyosiy tahlil, ma'lumotlarni guruhlash, absrakt-mantiqiy fikrlash, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi. Ushbu tadqiqot usullari soliq ma'murchiligini, xususan soliq qarzdorligini qisqartirish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha xulosa va takliflarni shakllantirishda xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Respublikamizda soliqlar va yig'imlar davlat iqtisodiyotining asosiy tayanchi hisoblanadi. Soliqlarning o'z vaqtida va to'liq hajmda undirilishi har bir mamlakatning iqtisodiyotini barqaror rivojlanishi bilan birgalikda ijtimoiy-iqtisodiy hamda mudofaa qudratining oshishini ham ta'minlaydi. Shuningdek, budjetga hisoblangan soliqlarning undirilishi respublika va mahalliy hokimiyat organlari zimmasidagi ichki va tashqi majburiyatlarining bajarilishida muhim ahamiyatga egadir. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, soliq to'lovchilarning soliqlar va yig'imlardan bo'lgan qarzdorlik summalarini qisqartirish yo'llarini takomillashtirish soliq organlarining muhim vazifasi sifatida belgilab qo'yilgan. Mazkur yo'nalishni yanada rivojlantirishda quyidagi xorijiy mamlakatlar tajribalarini ko'rib chiqishimiz mumkin.

AQShda muddatida to'lanmagan soliqlarga foizlar yiliga 6 foiz stavkada hisoblanadi. Kechiktirilgan jarimalarga esa oyiga 0,5 foizni tashkil etadi. Agar soliq to'lovchi soliq qarzini 90 foizini to'lasa, jarimalarni to'lamasligi mumkin, ammo soliqlar bo'yicha hisoblangan penyalarni to'laydi. Tadbirkorlik subyektlari tomonidan kechiktirilgan soliq summalariga jarima va yig'imlar kechiktirilgan har bir oy uchun 10-15 foizdan maksimal 25 foizli stavkada qo'llaniladi. Soliq qarzi to'lanmay qolsa, soliq organi (Internal Revenue Service - IRS deb nomlanadi) tomonidan soliq to'lovchining mol-mulki yoki boshqa aktivlari tortib olinishi mumkin.

Agar soliq to'lovchilar tomonidan soliq to'lashdan bo'yin tovlash holatlari, ya'ni deklaratsiya taqdim etmaslik, naqd pul tushumlari haqida noto'g'ri ma'lumot berish, soxta hisobvara-q-fakturalarni yaratish va daromadlarni yashirishga qaratilganligi aniqlansa, soliq to'lovchi jinoiy javobgarlikka tortiladi. Qasddan soliq to'lamaslik uchun jinoiy ish qo'zg'atilib, 10 000 AQSh dollarigacha jarima yoki 5 yil muddatgacha ozodlikdan mahrum qilish yoxud har ikkalasi ham qo'llanilishi mumkin.¹⁴

Avstraliyada soliq to'lovchilarda soliq qarzi vujudga kelsa, soliq organi soliq qarziga nisbatan har chorakda foiz (GIS stavkalari) hisoblanadi va har chorakda foiz stavkalari kamayib boradi. Buni quyidagi 1-jadval asosida ko'rishimiz mumkin.

Noqonuniy foyda topayotgan soliq to'lovchilarga kuchli choralar qo'llaniladi. Kuchli choralarga:

- soliq to'lashdan qasddan qochgan soliq to'lovchilarga audit o'tkaziladi;

- hech qanday yordam berilmaydi.

¹⁴ <https://ourworldindata.org> - sayt ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

1-jadval

2020-2021-yillarda GIS foiz stavkalari¹⁵

Chorak	GIS choraklik stavkasi	GIS kunlik stavkasi
2021-yil, aprel-iyun	7,89 %	0,02155738 %
2021-yil, yanvar-mart	7,91 %	0,02161202 %
2020-yil, oktabr-dekabr	7,98 %	0,02186301 %
2020-yil, iyul-sentabr	8,54 %	0,02339726 %

Shuningdek, soliq qarzi mavjud yakka tartibdagi tadbirkorlarga, sherikchilik asosida tashkil qilingan tashkilotlar va kompaniyalarga nisbatan quyidagi choralar ko'rilishi mumkin:

- sudga da'vo ariza kiritiladi hamda sud tomonidan qarzdorlik tan olinsa, bankrotlik to'g'risida bildirishnoma kiritilishi amalga oshiriladi;

- bankrotlik to'g'risida xabarnoma kelganidan so'ng 21 kun ichida qarzni to'lashi yoki soliq organi bilan reja tuzilishi kerak. Agar soliq to'lovchi bu ishlarni amalga oshirmasa, bankrot deb topiladi;

- soliq organining iltimosnomasiga asosan Federal sudga yoki Federal Magistratlar sudiga korxonani bankrot deb e'lon qilish to'g'risida ariza kiritiladi;

- korxonani 21 kun ichida soliq qarzlarini to'liq to'lab berishi yoki soliq organi bilan reja tuzishi talab etiladi, aks holda soliq organi korxonani Federal sudga uni tugatish to'g'risida ariza bilan murojaat qiladi;

- sud korxonani tugatish to'g'risida qaror chiqarganda, tayinlangan rasmiy tugatuvchi tugatilayotgan korxonaning aktivlarini kreditor (soliq organi va boshqa tashkilotlar) o'rtasida taqsimlaydi.

Ispaniyada ham Avstraliyada qo'llanilayotgan amaliyotga o'xshash, ammo ularda soliq to'lovlarni kechiktirish yoki to'lamaslik jarima (penya emas) solishga sabab bo'ladi va buni quyidagi 2-jadval asosida ko'rib chiqamiz.

2-jadval

Soliq qarziga nisbatan qo'llaniladigan jarimalar tahlili¹⁶

Muddatlar	Stavkalar
Yanvar-mart	qo'simcha 5 %
Aprel-iyun	qo'simcha 10 %
Iyul-dekabr	qo'simcha 15 %
Bir yildan keyin	qo'simcha 20 %

Yuqoridagi 2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Ispaniya davlatida soliqlar va boshqa to'lovlarni kechiktirib to'lash yoki soliq qarzlarini o'z vaqtida to'lamaslik, soliq summasiga nisbatan o'sib boruvchi tartibda foiz miqdorida moliyaviy jarimalar qo'llaniladi. Soliqlarni to'lash muddati o'tganidan so'ng soliq to'lovlari qancha tez to'lansa, shuncha jarima stavkasi past bo'ladi.

Shuningdek, soliq deklaratsiyasini (hisobot) kechiktirib taqdim etish yoki taqdim etmaganlik uchun jarima 100 yevro, agar soliq organi tomonidan soliq deklaratsiyasini taqdim etish to'g'risida ogohlantirish olganidan keyin ham soliq deklaratsiyasi taqdim etilmasa 200 yevroga jarimaga tortiladi.

Bundan tashqari Ispaniyada soliq qonunchiligini buzilishiga qarab 3 turdagi jarimalar qo'llanilishi mumkin:

- kichik qoidabuzarliklar soliq qarzi summasining 50 foizi miqdorida jarima, shuningdek, foiz (penya)lar;

- jiddiy qoidabuzarliklar sodir etilsa, soliq qarzi summasining 50-100 foiz miqdorigacha jarima, shuningdek, foiz (penya)lar;

- juda jiddiy qoidabuzarliklar sodir etilsa, soliq qarzi summasining 100-150 foiz miqdorigacha jarima, shuningdek, foiz (penya)lar undiriladi.

Agar soliq to'lovchi soliq summalarni qasddan yashirishga harakat qilmagan bo'lsa va soliq qarzi summasi 3 000 yevrodan kam bo'lsa kichik qoidabuzarliklarda nazarda tutilgan tartibda foizlar qo'llaniladi.

¹⁵ <https://www.ato.gov> - sayt ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

¹⁶ <https://theonestopproblemshop.com> - sayt ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Jiddiy qoidabuzarliklarga soxta hujjatlar aniqlanganda yoki deklaratsiyalarni qasddan soxta rasmiylashtirilishi kiradi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan jiddiy qoidabuzarliklar bir yil ichida qayta takrorlansa, juda jiddiy qoidabuzarliklar sifatida qaraladi va eng yuqori stavkalarda jarimaga tortiladi.

Fransiyada soliq organi soliq to'lovchi bo'lgan yuridik shaxslarda vujudga kelgan soliq qarzini undirishdan oldin uning qasddan yoki qasddan emasligiga e'tibor beradi. Agar soliq to'lovchi tomonidan soliq qarzi qasddan vujudga keltirilmagan (odatda soliq to'lovchini olgan daromadining 5 foizi miqdorida) bo'lsa, soliq organi tomonidan soliq qarzini 30 kun muddatda to'lash bo'yicha xabarnoma yuboriladi hamda hech qanday penya va jarimalar qo'llanilmaydi.

Ammo, soliq to'lovchi soliq qarzi vujudga kelishini qasddan sodir etgan bo'lsa, soliq organi tomonidan soliq qarzini 30 kun muddatda uzish to'g'risida talabnoma yuboradi. Shuningdek, soliq qarzi summasiga nisbatan har oy 0,4 foizli penya hisoblanadi. Agar soliq qonunchiligi buzilishi jiddiy bo'lsa, to'lanmagan soliq summasiga nisbatan 10, 40 yoki 80 foizgacha jarima solinishi mumkin.

Bundan tashqari, soliq to'lovchi soliq organi tomonidan yuborilgan ogohlantirishlarga qaramay, vijdotsizlik bilan soliq qarzini to'lamasa, faoliyatini qasddan tugatsa, ularga nisbatan soliq qarzining 80 foiz miqdordagi jarima qo'llanilishi hamda soliq qarzdorligi sezilarli darajada ko'p bo'lsa va soliq to'lovchi aybdor deb topilsa, u ozodlikdan mahrum qilinishi mumkin.

Jismoniy shaxslar esa daromadlari to'g'risida deklaratsiyani kechiktirib taqdim etsa yoki umuman taqdim etmasa quyidagi jarima va penyalar qo'llanilishi mumkin:

- 10 foiz, agar rasmiy xabarnoma soliq organi tomonidan yuborilmagan bo'lsa;
- 20 foiz, agar rasmiy xabarnoma soliq organi tomonidan yuborilgan va 30 kun ichida deklaratsiya taqdim etilgan bo'lsa;
- 40 foiz, agar rasmiy xabarnoma soliq organi tomonidan yuborilgan, ammo 30 kun ichida deklaratsiya taqdim etilmagan bo'lsa;
- 80 foiz, agar soliq organi xo'jalik yurituvchi subyektning noqonuniy deklaratsiya taqdim qilmasdan hamda rasmiy ogohlantirmasdan ishlayotganini aniqlagan taqdirda.

Shuningdek, soliqlarni kechiktirib to'laganlik uchun har oyda 0,2 foiz miqdorda penya hisoblanadi. Penya hisoblanishi deklaratsiya taqdim etilgan kundan boshlab to'xtatiladi.¹⁷

Italiyada esa soliq deklaratsiyasini taqdim etmaslik, soliq qarzi summasining 120 foizdan 240 foizgacha bo'lgan miqdorda jarima solinishiga sabab bo'lishi mumkin. Agar deklaratsiyada soliq majburiyati bo'lmasa jarimaning eng kam miqdori (250 yevrodan 1 000 yevrogacha) qo'llaniladi.

Yuridik shaxslar tomonidan soliqlarni o'z muddatida to'lamaslik, soliq qarzdorligi summasining 30 foiz miqdorigacha jarima solishga sabab bo'ladi. Ammo, soliq qarzini kechiktirish 15 kungacha cho'zilsa 1 foiz miqdorda, 15-90 kungacha to'lanmasa 15 foiz miqdorda jarima solinadi. Buni quyidagi 3-jadval asosida ko'rishimiz mumkin.

3-jadval

Italiyada soliq qarzini undirishda qo'llaniladigan jarimalarning o'ziga xos xususiyati¹⁸

Soliq qarzdorligidan keyingi muddat	O'rtacha jarima	Kamaytirilgan jarima	Har bir kechiktirilgan uchun penya
14 kun davomida	15 %	1/10	0,1 %
15-30 kun davomida	15 %	1/10	1,5 %
31-90 kun davomida	15 %	1/9	1,67 %
91-kundan boshlab soliqni qaytarish-ning oxirgi muddatiga qadar	30 %	1/8	3,75 %
Keyingi soliqni qaytarishdan oldin	30 %	1/7	4,29 %
Keyingi soliqni qaytarishdan oldin	30 %	1/6	5 %

Yuqoridagi 3-jadval ma'lumotlariga asosan, agar soliq to'lovchi soliq qarzini kechiktirgan kundan boshlab 30 kun ichida soliq qarzini to'lab bersa, unga nisbatan kamaytirilgan jarima qo'llaniladi. Shuni ta'kidlash joizki, Italiyada soliqlarni to'lash muddatini kechiktirib yoki teng ulushlarda taqsimlab to'lash mexanizmi mavjud emas.

¹⁷ <https://www.french-property.com> - sayt ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

¹⁸ <https://taxing.it> - sayt ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Xulosa va takliflar.

Yuqorida ko'rib chiqilgan xorijiy tajribalarni umumlashtirib xulosa quyidagi xulosalarni keltirish mumkin:

- deyarli barcha rivojlangan mamlakatlarda soliq to'lovchida soliq qarzdorligi yuzaga kelganidan keyin har bir kechiktirilgan kun uchun penya hisoblash bilan birgalikda to'lov intizomini buzganlik uchun moliyaviy jarimalar qo'llaniladi. Muallif fikricha, mazkur amaliyotning soliq tizimimizda joriy etilishi soliq to'lovchilarning soliq bo'yicha majburiyatlarini o'z muddatida bajarish mas'uliyatini oshiradi hamda budjetga soliqlar o'z vaqtida va to'liq hajmda tushishi ta'minlanadi;

- Fransiya davlati tajribasi asosida, mamlakatimiz soliq tizimida soliq qarzdorligini majburiy undiruv choralarini qo'llash orqali undirishdan oldin uning paydo bo'lish sababini o'rganish lozim. Agar soliq to'lovchi tomonidan soliqlar va yig'implardan qarzdorlik summasi qasddan vujudga keltirilgan bo'lsa, unga nisbatan keskin choralar ya'ni penya (foiz) va jarimalarni oshirilgan stavkada qo'llash tartibini joriy etilishi, kelgusida soliq qarzdorligining ulushini pasaytirishda va soliq to'lovchilarda to'lov intizomini ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Adabiyotlar/Lumepamypa/Reference:

(Farmon 2022) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi.

Мороз В.В. (2011) Налоговое администрирование задолженности организаций по налогам и сборам: проблемы взыскания.: дис. канд. экон. наук. – с. 36.

Michael Brostek (2009). Tax debt collection IRS needs to better manage the collection notices sent to individuals. // United States government Accountability office. P-27.

Виноходова И.Г. (2019) Совершенствование практики взыскания задолженности организаций по налогам и сборам. // Научное статья.-с.22.

Подколзин А.Г. (2016) Журнал «Российское предпринимательство» №2 с. 74.

Tangriqulov A. va boshq. (2010) Soliq qarzi va uni undirish. O'quv qo'llanmasi. – T.: "Yangi asr avlodi" nashriyoti. –b. 51.

O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, 96-modda. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020-yil. – 640 bet.